

**MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YAKKA TARTIBDAGI
TADBIRKORLIK VA O'ZINI O'ZI BAND QILGAN SHAXSLAR FAOLIYATINING
O'RNI**

Yakubov San'atbek Ravshanbekovich

O'qituvchi, Ma'mun universiteti

yakubov_sanatbek@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yakka tartibdagi tadbirkorlik va o'zini-o'zi band qilgan shaxslar faoliyatining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. Muallif ushbu tadbirkorlik shakkllari orqali ishsizlikni kamaytirish, mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va davlat byudjetiga soliq tushumlarini oshirish imkoniyati haqida tahliliy fikr bildiradi. Shu bilan birga, frilanser (o'zini-o'zi band qilgan shaxs)lar va tadbirkorlarning duch kelayotgan asosiy muammolari, ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Yakka tartibdagi tadbirkorlik, frilans faoliyati, iqtisodiy rivojlanish, ish bilan bandlik, soliq tizimi, raqamli iqtisodiyot, ishsizlik.*

Annotation: *This article analyzes the role of individual entrepreneurship and freelance activity in the economic development of a country. It emphasizes how these forms of self-employment contribute to job creation, local economic growth, and digital transformation. The article also addresses challenges such as lack of legal protection, access to finance, and poor infrastructure, and suggests ways governments can support this sector.*

Key words: *Individual entrepreneurship, freelance activity, economic growth, employment, taxation, digital economy, self-employment.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль индивидуального предпринимательства и фриланс-деятельности в экономическом развитии страны. Подчёркивается их вклад в создание рабочих мест, поддержку местной экономики и цифровую трансформацию. Также анализируются проблемы, с которыми сталкиваются самозанятые, и предлагаются меры государственной поддержки.*

Ключевые слова: *Индивидуальное предпринимательство, фриланс, экономический рост, занятость, налогообложение, цифровая экономика, самозанятость.*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimlar o'zgaruvchan sharoitlarga moslashmoqda va bunda kichik biznes hamda o'zini o'zi band qilgan aholi qatlaming ahamiyati tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, yakka tartibdagi tadbirkorlik va frilans faoliyati bugungi kunda ish o'rinalini yaratishda, innovatsiyalarni joriy etishda va milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Maqolaning maqsadi – ushbu ikki faoliyat turining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rmini ochib berish, mayjud muammolarni aniqlash va yechimlar taklif qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLLILI

Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkilotining tadqiqotlariga ko‘ra, frilans va yakka tartibdagи tadbirkorlar global miqyosda ishchi kuchining sezilarli qismini tashkil etadi. OECD (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa davlatlarida frilanserlar umumiyl ishchi kuchining 10-15 foizini tashkil qilmoqda. O‘zbekistonda bu boradagi ilmiy izlanishlar cheklangan bo‘lsa-da, mavjud tahlillar ushbu segment iqtisodiyotga salmoqli hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi. Boboev (2020) o‘z izlanishlarida frilanserlik faoliyatining soliq tizimi bilan integratsiyalashuvi dolzarbligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot usullari

Maqola tayyorlashda quyidagi asosan quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Statistik tahlil – bunda mavjud O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Jahon banki ma’lumotlari o‘rganildi;

Taqqoslov usuli – Yevropa davlatlari va O‘zbekiston tajribasini solishtirish orqali;

Shuningde kontent tahlil – ya’ni ilmiy maqolalar va xalqaro hisobotlar ham o‘rganildi.

Umuman olganda mazkur metodlar qo‘llash orqali mavzuga tizimli yondashuv ta’minlandi.

NATIJALAR

Tahlillar natijasida shuni ko ‘rsatdiki:

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan soliq sohasidagi keng ko‘lamli islohatlar natijasida yakka tartibdagи tadbirkorlar va o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyati orqali ishlab chiqarilgan hamda yaratilgan tovar va xizmatlar ulushi O‘zbekiston Respublikasi YIMning sezirarli darajada oshishi ta’milanmoqda.

Ushbu turdagи tadbirkorlik subyektlari ya’ni yakka tartibdagи tadbirkorlar va o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslar, ayniqsa, axborot texnologiya, tarjimonlik va grafik dizayn yo‘nalishlarida xorijiy buyurtmalarni qabul qilib, ularga xizmat ko‘rsatish orqali eksport xizmatlarining muhim qismini bajarilishida ham o‘sish su’ratlarini ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda, boshqa xorijiy mamlakatlar singari, ayniqsa Yevropa mamlakatlaridagi kabi yakka tartibdagи tadbirkorlar va o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslar faoliyati ularga soliq imtiyozlari taqdim etish va sodda, yengillashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish tizimini joriy etish orqali rag‘batlanТИrilmоqda.

MUHOKAMA

Yakka tartibdagи tadbirkorlik tushunchasi va uning iqtisodiy ahamiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak yakka tartibdagи tadbirkor – bu o‘zining tadbirkorlik faoliyatini boshlagan, mustaqil faoliyat yurituvchi shaxsdir. Ular yirik korxonalardan farqli ravishda kichik resurslar va cheklangan kapital bilan ish yuritadilar. Misol uchun, tikuvchilik ustaxonasi, shaxsiy do‘kon, qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish markazlari kabi sohalar yakka tartibdagи tadbirkorlikka misol bo‘la oladi.

Ularbing iqtisodiyotdagi o‘rni quyidagilardan iborat:

- Ish o‘rniali yaratadi;
- Mahalliy iqtisodiyotga hissa qo‘shadi;
- Davlat budgetiga soliq tushumlarini oshiradi.

Frilans faoliyati va uning zamонави iqtisodiyotdagi o‘rni. Frilans (o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs) – bu shaxsiy korxona ochmasdan, mustaqil ravishda xizmat ko‘rsatish faoliyatidir.

Bu turdag'i ishda jismoniy shaxs biror korxona-tashkilotda doimiy ishlamaydi, balki turli mijozlarga xizmat ko'rsatadi. Frilanserlar yozuvchilik, grafik dizayn, dasturlash, tarjimonlik, onlayn dars berish kabi ko'plab sohalarda faoliyat yuritadilar.

Frilansning afzallikkari quyidagilardan iborat:

- Moslashuvchan ish grafigi;
- Jahon bozoriga chiqish imkoniyati;
- Iqtisodiy erkinlik va o'z-o'zini band qilish;

Frilansning iqtisodiyotga ta'siri sifatida esa asosan quyidagilar ta'kidlanadi:

- Eksport xizmatlari;
- Raqamli iqtisodiyotga o'tishga yordam;
- Bandlik darajasini oshiradi;

Yakka tartibdag'i tadbirkorlik va frilans (o'zini-o'zi band qilgan shaxs)ning umumiy o'xshashliklarini quyida (1-jadval) ko'rishimiz mumkin:

Yakka tartibdag'i tadbirkorlik va frilans (o'zini-o'zi band qilgan shaxs)ning umumiy o'xshashliklarini

1-jadval

| Yo'naliш | Yakka tartibdag'i tadbirkorlik | Frilans faoliyati |
|-------------------------|--------------------------------|------------------------------------|
| Moliyaviy mustaqillik | Bor | Bor |
| Rasmiy ish joyi | Ko'pincha mavjud | Odatda yo'q |
| Raqobat darajasi | Yuqori | Juda yuqori |
| Internetdan foydalanish | Ixtiyoriy | Zarur |
| Soliq to'lash | Majburiy | Ko'pchilikda yo'q (lekin kerak) |

Bunda moliyaviy mustaqillik – har ikkala tadbirkorlik subyektida ham mavjud bo'lib, rasmiy ish joyi – yakka tartibdag'i tadbirkorlarda ko'p hollarda mavjud, frilanserda esa odatda yo'q ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Raqobat darajasi – har ikkalasida ham yuqori hisoblanadi, internetdan foydalanish – faoliyat turlaridan kelib chiqib qaralganda frilansda zarurroq, tadbirkorlikda ixtiyoriy. Davlar budgetiga soliqlarni to'lash majburiyatlari bo'yicha ham ushbu subyektlarda o'zaro farq mavjud – yakka tartibdag'i tadbirkorlarga soliqlarni to'lash majburiy qilib belgilangan, frilans (o'zini-o'zi band qilgan shaxslar)da ko'p hollarda imtiyozlar mavjud.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu turdag'i tadbirkorlik subyektlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritishida quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

- Moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi;
- Soliqqa tortilishda noaniqlik;
- Internet va texnologik infratuzilmaning zaifligi (ayniqsa qishloqlarda);
- Juridik himoyaning yetishmasligi;
- Kasaba uyushmalari va ijtimoiy kafolatlarning mavjud emasligi;

Ushbu muammolarni bartaraf etish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi takliflarni amalyotga joriy etish maqsadga muvofiq:

- Imtiyozli kreditlar va grantlar berish
- Raqamli ko'nikmalarini o'rgatish uchun bepul kurslar tashkil etish
- Frilans platformalarni yaratish
- Soliq yengilliklari va soddalashtirilgan tizimlar
- Ko'p funksiyali biznes markazlar ochish

XULOSA

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va frilanserlar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular orqali ishsizlik kamaymoqda, innovatsiyalar kengaymoqda va jamiyatda iqtisodiy erkinlik kuchaymoqda. Davlat ushbu sektorlarni faol qo'llab-quvvatlasa, bu mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va xalq farovonligi uchun muhim poydevor bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi qarori.
2. World Bank Report: Jobs Diagnostic for Uzbekistan, 2020.
3. Global Gig Economy Index, Payoneer, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirligi hisobotlari, 2022.
5. OECD (2021). The Missing Entrepreneurs.
6. UNDP Uzbekistan. Entrepreneurship Development Programmes, 2021.
7. Statista.com. "Freelance workforce size and growth worldwide", 2022.
8. Xolboev A. "Yoshlar tadbirkorligi", TDIU, 2021.
9. www.freelancer.com va www.upwork.com statistik ma'lumotlari.